

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr .....	8
<b>Baxtiyor Islamov</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati .....	10
<b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov</b>	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ...	16
<b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar .....	24
<b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	
Yashil budgetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari .....	30
<b>Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari .....	35
<b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir .....	39
<b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish .....	44
<b>A. X. Salamov</b>	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida .....	48
<b>Dosmuratova Shaxista Kengashovna</b>	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	55
<b>Axmediyeva Aliya Toxtarova</b>	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari .....	63
<b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
<b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	72
<b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari .....	76
<b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari .....	80
<b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari .....	84
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) .....	89
<b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	94
<b>Nazarova Umida Avazovna</b>	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari .....	98
<b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish .....	103
<b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	
Surxondardon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati .....	108
<b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili .....	113
<b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish .....	119
<b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari .....	123
<b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	
Razvitiye cifrovoy transformatcii bankovskogo sektora Respublikи Uzbekistan .....	129
<b>Abdurahmanova Matluba Mahamadaminovna</b>	



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Vzaimosvazъь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умидा Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiiev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dusmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) .....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabeck Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
<b>Normo'minov Temurbek Sheraliyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
<b>To'ychiyev Otabek Shamshihevich</b>	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b>	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li</b>	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
<b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	302
<b>Abdullahayev Boburjon Akbaralievich</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
<b>O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov</b>	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
<b>Mukhlisa Ikramova</b>	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
<b>Yusupov Muhammadali Sohib o'g'li, J.D. Xojiyev</b>	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
<b>Kadirova Sharofat Amonovna</b>	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирийўлайўловчи" .....	332
<b>H. З. Кахарова</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
<b>Sharipov Bobur Anvar o'g'li</b>	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
<b>Musyeva Shoiria Azimovna</b>	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	348
<b>M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova</b>	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
<b>Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova</b>	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Fao tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari .....	362
<b>Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
<b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>	
Процессы цифровизации АО "Худугазта'minot" .....	373
<b>Хусанов Каҳрамон Нишонович</b>	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
<b>Abdullahayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi .....	381
<b>Bobayev Isroijon Abdinabiyevich</b>	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b>	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Ilhomovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি .....	469
<b>Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova</b>	
Tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldasheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi .....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммадович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lrim sifatiga ta'siri .....	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi .....	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	



# BIZNES-REJA BALIQCHILIK XO'JALIGI RIVOJLANISHI UCHUN ASOS SIFATIDA

**Dosmuratova Shaxista Kengashovna**

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida o'rganilgan. Biznes-reja tushunchasi nazariy jihatdan tadqiq qilingan va mualiflik yondashuvi shakllantirilgan. Biznes-reja tuzilishi bo'yicha iqtisodiy manbalardagi yondashuvlar tadqiq va tahlil qilingan, ular asosida baliqchilik xo'jaligi uchun biznes-reja tuzilishi tavsija etilgan.

**Kalit so'zlar:** biznes-reja, baliqchilik xo'jaligi, biznes-reja tuzilishi, baliqchilikni rivojlantirish.

**Abstract:** The article examines a business plan as the basis for the development of fisheries. The concept of a business plan is theoretically explored and the author's approach is formed. Approaches from economic sources to the structure of a business plan were studied and analyzed, on the basis of which the structure of a fisheries business plan was recommended.

**Key words:** business plan, fisheries, business plan structure, fisheries development.

**Аннотация:** В статье рассматривается бизнес-план как основа развития рыбного хозяйства. Теоретически исследовано понятие бизнес-плана и сформирован авторский подход. Исследованы и проанализированы подходы из экономических источников к структуре бизнес-плана, на основании которых рекомендована структура бизнес-плана рыбного хозяйства.

**Ключевые слова:** бизнес-план, рыболовство, структура бизнес-плана, развитие рыболовства.

## KIRISH

So'nggi yillarda baliqchilik sohasida biznesni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilindi. Bular O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydag'i "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2939-son<sup>[1]</sup>, 2018-yil 6-apreldagi "Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3657-son<sup>[2]</sup>, 2018-yil 6-noyabrdagi "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4005-son<sup>[3]</sup> qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13 sentyabrdagi "Baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 719-son<sup>[4]</sup>, 2018-yil 31-iyuldag'i "Baliqchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 606-son<sup>[5]</sup> qarorlari dir. Mazkur qarorlarda belgilangan vazifalarni bajarish juda muhim hisoblanadi. Baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirishda biznes reja asos bo'ladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning asosi biznes reja va uning tuzilishini shakllantirish masalalari bo'lib, mazkur masalalar xorijlik iqtisodchi olimlar B.Gustav, P.Kirshner, R.Abrams, E.Blekvell, V.P.Gruzinova, M.V.Charayeva, A.V.Paleyev va boshqalarning asarlarida muhokama qilingan.

Xorijlik iqtisodchi olim Gustav Berl, Pol Kirshnerlarning "Mgnovenniy biznes-plan" asarida "muayyan biznes-rejada qo'yilgan masalalarning ko'lami va ahamiyatiga qarab, uni ham korxonani rivojlantirishning strategik rejasi, ham kengroq harakatlar rejasining alohida elementi sifatida talqin qilish mumkin. Bunday rejalar, birinchi navbatda, rivojlanishning qandaydir yangi yo'nalishini oqlash uchun kerak, shuning uchun ular ko'pincha muntazam emas, balki bir martalikdir. Bunday holda biznes-reja – bu kompaniya faoliyatining taklif etilayotgan yangi yo'nalishining mohiyatini aniq va vizual tarzda ochib beradigan, ma'lum bir loyihami amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini asosiy ko'rsatkichlarni jamlangan shaklda aks ettiruvchi



hujjat. Bunday hujjatning yo'qligi cheklangan moliyaviy va boshqa resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi; barcha xodimlarning sa'y-harakatlarini eng istiqbolli muammolarni hal qilishga jamlashga imkon bermaydi; haqiqiy erishilgan natijalarning rejalashtirilganidan og'ish darajasini baholashga imkon beradigan boshqa umumlashuvchisi hujjat yo'qligi sababli samarali nazoratni amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'didi" [10], degan fikrni bildiradi.

Xorijlik soha mutaxassis R.Abrams "Biznes-plan na 100 %: Strategiya i taktika effektivnogo biznesa" kitobida "Biznes-reja rasmiy hujjatdir. Yaxshi biznes g'oya, ayniqsa kuchli jamoa tomonidan taqdim etilgan, o'zini potensial kreditor yoki investorga "sotadi", deb hisoblaydi ko'plab rossiyalik tadbirkorlar. Amalda aynan shu yondashuv biznes-rejani loyiha va uni moliyalashtirish o'tasidagi "so'nggi mil"ga aylantiradi. Ko'rinishidan, g'oya yaxshi, bozor o'sib bormoqda va jamoa "bilib turibdi" – lekin loyihami amalga oshirish uchun mablag'larni jalb qilishning iloji yo'q" [15] deb ta'kidlaydi. Shuningdek, biznes rejaning mazmun va mohiyati, tarkibi, ishlab chiqish tartibi hamda uning ahamiyatini aynan iqtisodchi olimlarimizdan B.Yu.Menglikulov, I.R.Davletov, B.K.Uralov, O.R.Fayziyev kabi olimlarimizning o'z ilmiy tadqiqot ishlariда [11, 12, 13, 16] yetarlicha yoritib berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur tadqiqot ishimizning ikkinchi bir qismida baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, respublikamizning yana bir qator, jumladan O.R.Fayziyev, A.K.Aitimbetov, D.Saidova kabi olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlariда [18, 20, 22] qishloq xo'jaligida aholini go'sht va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashda baliqchilik xo'jaliklarining hozirgi holati tahlil qilinib baliqchilikning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishgan.

Shuningdek, I.Yunusov, I.S.Ochilov kabi yana bir guruh olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlariда [17, 19, 21, 23] esa, nafaqat baliqchilik xo'jaliklarida biznes reja tuzish amaliyotini yo'lga qo'yish balki, sohada ish yuritishning yangi bozor mexanizmlaridan biri va makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning zamonaviy usuli hisoblangan klasterlashtirish orqali sinergetik samaradorlikka yetishish imkoniyati mavjud ekanligi o'rganilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biznes-reja tushunchasining mazmun-mohiyatini tadqiq qilish va baliqchilik xo'jaliklarida biznes-reja tuzishini tadqiq qilish jarayonida kuzatish, monografik tadqiq qilish, mantiqiy va taqqolama tahlil qilish kabi usulardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy manbalarda biznes-reja mazmun-mohiyati bo'yicha juda ko'plab ta'riflar, fikr-mulohazalar va yondashuvlar keltirilgan. Shulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida biznes-rejaga quyidagicha ta'rif berilgan, "Biznes reja – aniq tanlangan tadbirkorlik ishining barcha bosqichlari tavsiflangan va taxminiy hisob-kitob qilingan loyiha. Unda aniq tanlangan tadbirkorlik ishining hamma tomonlari o'z aksini topadi" [9]. Shuningdek, "Biznes-reja – bu tadbirkorning rejalashtirilgan biznes sxemasining yozma qisqacha mazmuni, uning moliyaviy va samarali tafsilotlari, imkoniyatlar, strategiya va uning rahbarlarining malaka va ko'nikmalari, uni ilgari surish. Biznes-rejani yaratish juda muhim, chunki tadbirkor muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshirish uchun yaxshi o'yangan, aniq yaratilgan biznes-rejaga ega bo'lishi kerak" degan fikr-mulohazalar keltirilgan [9].

Vikipediya "Biznes-reja (ing. biznes-reja) – korxona, mahsulot, uni ishlab chiqarish, sotish bozorlari, marketing, operatsiyalarni tashkil etish va ularning samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xo'jalik operatsiyalarini, kompaniyaning harakatlarini amalga oshirish rejasи. Biznesni rejalashtirish – bu har qanday rejalashtirilgan va ishlab chiqilgan harakat dasturlari orqali maqsadlar va ularga erishish yo'llarini aniqlash, ularni amalga oshirish jarayonida o'zgargan sharoitlarga muvofiq tuzatish mumkin" deb keltirilgan [24].

Xorijlik iqtisodchi olimlar Gustav Berl va Pol Kirchner "Bir lahzada tayyorlanuvchi biznes-reja" asarida "biznes-reja korxonangiz gullab-yashnashi uchun kerakli yo'lni tanlab olishingizga xizmat qiluvchi hujjatdir. Biznesning bilan bog'liq bo'lgan eng ahamiyatlari holat bu menejmentdir. Qisqasi bu – siz" [8] degan fikrni bildirgan. Xorijlik soha mutaxassis Edvard Blekvellning "Kak sostavit biznes-plan" asarida keltirilishicha: "Biznes-reja bank yoki boshqa moliyaviy muassasalardan pul olish kerak bo'lganda, shuningdek, aksiyalar emissiyasida foydalanimuvchi rejadir" [6]. Xorijlik professor V.P. Gruzinova muharrirligi ostida nashr qilingan "Korxona iqtisodiyoti" darsligida: "biznes-reja biron-bir tijorat loyihasini amalga oshirish yoki yangi korxona yaratish uchun mo'ljallangan asoslangan hatti-harakatlar yig'indisini ifodalovchi hujjatdir", shuningdek, "Korxona biznes-rejasi – yangi korxona yaratishni ko'zda tutuvchi hujjatdir" kabi fikr-mulohazalarni bildirganlar [7].

"Biznes-reja – bu butun jamoaga to'g'ri yo'nalishda harakat qilishda yordam beradigan yo'l xaritasi. Qoida tariqasida, Biznes-reja biznesning o'ziga xos xususiyatlariga va bozor xususiyatlariga qarab bir-yildan uch yilgacha ishlab chiqiladi. Biroq rejani har yili o'zgartirish (tuzatish) kerak degan nuqtayi nazar mavjud, chunki



tashqi omillar va iqtisodiy o'zgarishlarning mavjudligi kompaniyaning maqsadlari va moliyaviy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin" [15].

Diskussiya. Biznes-rejaning maqsadi biznesni amalga oshirishning haqiqiy imkoniyatlarini ko'rsatish, shuningdek, tashqaridan investitsiyalarni jalg qilish zarurligini (yoki yetishmasligini) ko'rsatishdir. Shundan kelib chiqib, biznes-reja ikki guruh foydalanuvchilarni qabul qildi:

- ichki – biznes g'oyaning asoschilari, xodimlari va tashabbuskori;
- tashqi – potensial investorlar, hamkorlar, kreditorlar.

TACIS metodikasi bo'yicha ishlab chiqilgan biznes-rejaning tuzilishi keng tarqalgandir [14]:

#### **"1. Rezyume**

#### **2. Korxona maqsadlari**

#### **3. Mavjud korxona faoliyati**

#### **4. Boshqaruv**

#### **5. Bozor**

#### **6. Mahsulotlar**

#### **7. Narxlash**

#### **8. Yetkazib beruvchilar**

#### **9. Moddiy resurslar**

#### **10. Binolar**

#### **11. Xodimlar**

#### **12. Foya va prognozlar**

#### **13. Moliyaga ehtiyoj"** [25].

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamkorlar uchun metodikaning soddalashtirilgan variantni ishlab chiqdi:

#### **1. Sarlavha sahifasi**

#### **2. Maxfiylik memorandumi**

#### **3. Rezyume**

#### **4. Kompaniya**

4.1. Korxonaning rivojlanish tarixi va biznes-rejani tuzish vaqtidagi holati, joriy faoliyat tavsifi

4.2. Korxonaning egalari, boshqaruv xodimlari, xodimlari

4.3. Joriy faoliyat

4.4. Moliyaviy holat

4.5. Kreditlar

#### **5. Loyerha**

5.1. Loyerha haqida umumiy ma'lumot

5.2. Loyerha investitsiya rejasi

5.3. Bozor tahlili, raqobatbardoshlik

5.4. Ishlab chiqarish jarayonining tavsifi

5.5. Moliyaviy reja

5.6. Atrof-muhitni baholash

#### **6. Moliyalashtirish**

6.1. Kredit mablag'larini olish va to'lash jadvallari

6.2. Garov va kafillik

6.3. Kredit mablag'ları hisobidan moliyalashtiriladigan uskunalar va ishlar

6.4. SWOT tahlili

6.5. Xatarlar va ularni kamaytirish choralar

#### **7. Ilovalar"** [14].

"YevrAzESga a'zo mamlakatlarning sanoat integratsiyasini qo'llab-quvvatlash" nomli YUNIDO proyekti 2-qismi "Strategik boshqaruv va biznesni rejalashtirish"da biznes-reja tuzilishiga quyidagicha yondashuvni keltinganlar:

#### **"1. Rezyume.**

#### **2. Taklif etilayotgan loyihaning g'oyasi (mohiyati):**

2.1. Umumiy dastlabki ma'lumotlar va shartlar;

2.2. Yangi mahsulot namunasining tavsifi;

2.3. Biznes tajribasini baholash;

2.4. Bozorni baholash;

2.5. Yangi mahsulot iste'molchilarining tavsifi;

2.6. Raqobatchilarni baholash;

2.7. Raqobatchilarga nisbatan o'zingizning kuchli va zaif tomonlaringizni baholash.



### **3. Marketing rejasি:**

- 3.1. Marketing maqsadlari;
- 3.2. Marketing strategiyasi;
- 3.3. Marketing rejasini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

### **4. Ishlab chiqarish rejasи:**

- 4.1. Yangi mahsulot ishlab chiqaruvchisi;
- 4.2. Mavjudligi va talab qilinadigan ishlab chiqarish quvvati;
- 4.3. Ishlab chiqarishning moddiy omillari;
- 4.4. Ishlab chiqarish jarayonining tavsifi.

### **5. Tashkiliy reja:**

- 5.1. Korxona mulkchiligining tashkiliy-huquqiy shakli;
- 5.2. Kompaniyaning tashkiliy tuzilishi;
- 5.3. Vazifalarni taqsimlash;
- 5.4. Hamkorlar haqida ma'lumot;
- 5.5. Tashqi biznes muhitining tavsifi;
- 5.6. Korxonaning mehnat resurslari;
- 5.7. Boshqaruv jamoasi a'zolari haqida ma'lumot.

### **6. Moliyaviy reja:**

- 6.1. Daromad va xarajatlар rejasи;
- 6.2. Naqd pul tushumlari va to'lovlar rejasи;
- 6.3. Kompaniya aktivlari va passivlarining konsolidatsiyalangan balansi;
- 6.4. Zararsizlik jadvali;
- 6.5. Moliyalashtirish strategiyasi (mablag'lar manbalari va ulardan foydalanish);
- 6.6. Xatarlarni baholash va sug'urta qilish.

### **7. Illova” [25].**

## XULOSA

Biznes-reja tushunchasiga berilgan ta'riflar va yondashuvlarni e'tiborga molik deb hisoblagan holda mazkur tushunchaga o'z yondashuvimizni shakllantirdik: "Biznes-reja – bu baliqchilik xo'jaligining bat afsil tafsifini beruvchi, maqsad va vazifalarni shakllantiradigan, biznesni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilaydigan, shuningdek, moliyaviy xarajatlarni asoslaydigan va biznes g'oyasini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni hisoblaydigan hujjat. Biznes-rejani ishlab chiqishning asosiy maqsadi baliqchilik xo'jaligi faoliyatini bozor ehtiyojlari va zarur resurslarni olish imkoniyatlariiga muvofiq yaqin davrga rejalashtirishdir".

Biznes-reja tuzilishi bo'yicha iqtisodiy manbalardagi yondashuvlarni o'rganish asosida hamda baliqchilik xo'jaliklarining xususiyatlarini inobatga olgan holda biznes-reja tuzilishi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi kerak degan, o'z yondashuvimizni shakllantirdik:

1. Rezyume
2. Xo'jalik tavsifi
3. Mahsulot tavsifi
4. Bozor va tarmoq tahlili
5. Marketing rejasи
6. Ishlab chiqarish rejasи
7. Tashkiliy reja
8. Risk tahlili
9. Moliyaviy reja
10. Illova”.

Rezyumega quyidagi ma'lumotlar kiritilishi kerak:

- loyihaning barcha xususiyatlarini ochib berish, shu jumladan: xo'jalik maqsadlari;
- mahsulotlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- sotish bozorlari va raqobat;
- xo'jalikni tashkil etish va boshqarish;
- xo'jalik haqida moliyaviy ma'lumotlar;
- xo'jalik uchun potensial foyda.

Xo'jalik tavsifi bo'limida xo'jalikning umumiy tavsifi bo'lishi kerak. Bo'limning asosiy elementlari quyidagilar bo'lishi lozim:

- xo'jalik haqidagi asosiy ma'lumotlar;
- xo'jalikning qisqacha tarixi;



- asosiy faoliyati bo'yicha biznes turi;
- xo'jalikning joylashgan joyi;
- xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar;
- biznes maqsadlari va strategiyalari.

Mahsulot tavfsifi bo'limida xo'jalik mahsulotlari tavsifi berilgan va ularga har tomonlama baho beriladi. Mahsulotni tanlash u qanoatlanadirigan iste'molchi fazilatlari nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi kerak ("istak – qoniqish" zanjiri). Asosiy savol: mahsulotingizning o'ziga xos xususiyati nimada, ular nima uchun uni sizdan sotib olishadi? Buning uchun quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi lozim:

- mahsulot bilan qondirilgan ehtiyojar;
- sifat ko'rsatkichlari;
- iqtisodiy ko'rsatkichlar;
- boshqa shunga o'xshash mahsulotlar bilan taqqoslash;
- patent muhofazasi;
- eksport ko'rsatkichlari va uning imkoniyatlari;
- mahsulotni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari;
- muvaffaqiyatning asosiy omillari.

Bozor va tarmoq tahlili bo'limi biznes-rejani tayyorlashning eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, u quyidagi savollarga javob berishi kerak: xo'jalikning mahsulotlarini kim, nima uchun va qanday miqdorda sotib oladi. Materialni taqdim etayotganda, ayniqsa, xo'jalik va uning rahbariyatiga ishonchni susaytirmaslik uchun o'z imkoniyatlaringizni oshirib yubormasdan va raqobatchilarning imkoniyatlarini kamsitmasdan realizmni ko'rsatish lozim. Biznes-reja quyidagi masalalarni aks ettirishi kerak:

- tarmoq xususiyatlari;
- baliqchilikni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollar;
- xo'jalikning tarmoqdagisi roli;
- xo'jalik faoliyat yuritmoqchi bo'lgan bozor turini aniqlash; bozor tuzilishini aniqlash;
- bozor sharoitlarini baholash;
- maqsadli segmentlarni tanlash;
- bozorda joylashish;
- sotish hajmining proqnozi (jismoniy va pul ko'rinishida);
- xo'jalik va uning asosiy raqobatboshligini baholash;
- mahsulotlarning raqobatboshligini baholash;
- xo'jalikning raqobatdosh ustunligi.

Marketing rejasi bo'limida biznes-rejaning maqsadlaridan kelib chiqqan holda xo'jalikning rejalashtirilgan marketing faoliyatining asosiy nuqtalarini ko'rsatish tavsiya etiladi. Bo'limning tuzilishi quyidagicha bo'lishi lozim:

- marketing strategiyasi;
- mahsulot siyosati;
- narx siyosati;
- sotish siyosati;
- aloqa siyosati;
- marketing budjeti.

Ishlab chiqarish rejasi bo'limi faqat ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan xo'jalik tomonidan tayyorlanadi. Bo'lim xo'jalikning kerakli miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni talab qilinadigan muddatda va kerakli sifatda ishlab chiqarishga qodirligini ko'rsatishi kerak. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonini yanada kengaytirish, modernizatsiya qilish, moslashuvchanlik va harakatchanlik imkoniyati ham berilishi lozim. Bo'lim tarkibi quyidagi shaklga ega bo'lishi kerak:

- xo'jalikning joylashgan joyi;
- uzoq muddatli aktivlarga (kapital qo'yilmalarga) ehtiyoj;
- ishlab chiqarish quvvatlari va ularning rivojlanishi;
- aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoj;
- ishlab chiqarish texnologiyasi;
- ishlab chiqarish jarayoni va operatsiyalari;
- mehnatni tashkil etish;
- sifat nazorati va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- xarakatlar proqnozi.

Tashkiliy bo'lim xo'jalikning boshqaruv tizimi va uning kadrlar siyosatiga bag'ishlangan bo'lishi kerak. Bo'limning tuzilishi quyidagi shaklga ega bo'lishi lozim:

- faoliyatni huquqiy ta'minlash;
- tashkiliy tuzilma;



- asosiy boshqaruv xodimlari;
- kompaniyaning kadrlar siyosati;
- kalendar rejasi.

Risk tahlili bo'limining maqsadi xo'jalik faoliyatini amalga oshirishdagi asosiy xavflarni aniqlash, ularning manbalari va sabablarini tahlil qilish, mumkin bo'lgan zararni baholash va xavflarni kamaytirish choralarini ko'rishdan iborat bo'lishi lozim. Ushbu bo'lim quyidagi komponentlarni o'z ichiga olishi kerak:

- xavf tahlili, loyiha riskini baholash;
- xavf yo'qotishlari, loyihaning xavf sohasi turi;
- xavflarni oldini olish va zararsizlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar;
- xavflarni sug'urta qilish dasturi.

Moliyaviy reja bo'limi biznes-reja bo'limlarining barcha oldingi materiallarini umumlashtiradi va ularni moliyaviy formulalar va xarajatlar ko'rsatkichlari shaklida taqdim etadi, shuningdek, investitsiyalarni olish va taklif etilayotgan loyihaning samaradorligini aniqlash rejasini o'z ichiga olishi kerak. Bo'lim uchta yo'nalishni birlashtirishi lozim:

1. Xo'jalik faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy natijalari:
  - xo'jalikning moliyaviy hisoboti;
  - xo'jalikning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish;
2. Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarni rejalashtirish:
  - xo'jalik balansining asosiy prognozi;
  - aktivlar moliyaviy va passiv foyda va zararlar prognozi;
  - pul oqimi prognozi;
  - loyihani moliyaviy baholash;
  - moliyaviy xavfsizlik marjasini prognozi;
3. Xo'jalikning moliyaviy strategiyasi:
  - investitsiya ehtiyojlarini va ularni moliyalashtirish manbalari;
  - umuman xo'jalikning samaradorligini baholash;
  - xo'jalik faoliyatida ishtirok etish samaradorligini baholash;
  - xo'jalikni tahlil qilish.

Ilovada odatda asosiy matnda ko'rsatilmasligi kerak bo'lgan materiallar berilishi kerak. Biznes-rejaga qo'shimchalar biznes-reja ishlab chiqilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlovchi turli xil hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tavsiya etilayotgan tuzilishdagi biznes-reja baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Mazkur biznes-reja asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va unga amal qilish baliqchilik xo'jaligining ko'zlangan asosiy maqsadiga, ya'ni biznes-rejada ko'rsatilgan sof foyda olishini ta'minlaydi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydag'i "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2939-son qarori. <https://lex.uz/docs/3188263>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi "Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3657-son qarori. <https://lex.uz/docs/3642735?otherlang=1>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4005-son qarori. <https://lex.uz/docs/4046069>.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 719-son qarori. <https://lex.uz/docs/3343140>.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyuldag'i "Baliqchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 606-son qarori. <https://lex.uz/docs/3844512>
6. Эдвард Блэквелл. Как составить бизнес-план. Издательство: –М.: Инфра-М. Переплёт: мягкий.–160 страниц; 1996 г. ISBN: 5-86225-056-5; Формат: стандартный.
7. Экономика предприятия. Под ред. проф. Грузинова В.П.–М.: "ЮНИТИ", –1998.
8. Густав Берл, Пол Киршнер. Мгновенный бизнес-план. –М.: ИНФРА –М. –2001.
9. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-jild. 20-b.
10. Густав Берл, Пол Киршнер. Мгновенный бизнес-план. –М.: ИНФРА –М. –2001.
11. B.Menglikulov. Biznes-reja uni tuzishda nimalarga e'tibor qaratish lozim? "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. – Toshkent, 2004. -№ 9. Sentyabr. – B. 12-13.
12. B.Menglikulov. Biznes-reja / "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. – Toshkent, 2005. –№ 3. Mart. – B. 7.
13. B.Menglikulov. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini moliyaviy rejalashtirish / "Bozor, pul va kredit" jurnali. – Toshkent, 2006. –№ 4. – B. 38-40.
14. Обзор методик формирования инвестиционного бизнес-плана. М.В.Чараева, А.В.Палеев // Финансы и кредит. –2014. –№ 18. –С. 2-8.



15. Бизнес-план на 100 %: Стратегия и тактика эффективного бизнеса / Р. Абрамс, пер. с англ. 3-е изд. М.: Альпина Паблишер.–2016.
16. B.Y.Menglikulov, I.R.Davletov, B.K. Uralov O.R.Fayziyev Biznes reja: mazmuni, tarkibi, ishlab chiqish tartibi va ahamiyati / "Agrar tarmoq iqtisodiy salohiyatini oshirishda institutsional islohotlar va agrokластerlarni rivojlantirishning o'rnii: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Toshkent, 2021. – B. 346-351.
17. I.S. Ochilov, S.K. Haydarov. Clusters in the economy of Uzbekistan and their issues of economic efficiency / Asian Journal of Research in Business Economics and Management 11 (10), 106-110, 2021.
18. O.R.Fayziev. A.H.Yo'doshboev. Food security issues in the digital economy / Web of Scientist: International Scientific Research Journal (June, 2022). – Indonesia, 2022. – Volume 3. – Issue 6. – P. 807-810 (ISSN: 2776-0979).
19. O.R.Fayziev, S.A.Abdug'anieva, A.H.Yo'doshboev. Issues of improving the organizational and economic framework for the organization of agro-clusters / Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) (June 2022). – India, 2022. – Volume 10. – Issue 6. – P. 573-576 (ISSN (E): 2347-6915).
20. O.Fayziyev, D.Saidova, S.Sheraliyeva / Qishloq xo'jaligida go'sht va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili / Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 2 (13), 2022, 280-284.
21. I.Yunusov, U.Sangirova, U.Ahmedov, O.Fayziev, U.Kholiyorov. Clustering of agriculture in the republic of Uzbekistan / E3S Web of Conferences 381, 02002 (2023) Aquaculture 2022 (<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338102002>);
22. O.Fayziyev, A.Aitimbetov. Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari. / "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot". – Toshkent, 2023. –№ 11-12. – B. 1380-1388.
23. I.S. Ochilov. Improving the analysis of the mezzanine financing in Uzbekistan clusters / The American Journal of Management and Economics Innovations 5 (09), 25-29, 2023.
24. Википедия (свободная энциклопедия). Бизнес-планирование. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
25. Экономические основы модернизации и технологического развития промышленных предприятий. Стратегическое управление и бизнес-планирование. Центр международного промышленного сотрудничества ЮНИДО в Российской Федерации. <https://unido.ru/upload/files/d/documenti>.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

